



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAHSUL TA'LIMI
VAZIRLIGI

BUXORO
D. VLAT
UNIVERSITETI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

**“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА
ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”**

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

5 февраль

19

hayoti ko'pincha ichki ziddiyatlar sharoitida kechadi. Farhodning Salosilga Xusrav tomonidan qo'yilgan soqchilar bilan munosabatidayoq obrazning muhim yangi belgisi ko'rinadi. Shoir tasvirida ayrim qarama-qarshiliklar ham yo'q emas. Farhod o'ta hissiyotga berilganda faoliyati bir muncha sustlashib ketadi. Xusravni osongina oradan yo'q qilish paytlari kelganda ham hissiyotlar doirasida qolgan Farhod faol harakatga o'tmaydi. U hatto Xusravni oldida o'zini-o'zi kamsitadi. Farhoddagi soddadillik shu darajaga borib yetgan ediki, u Shirinning o'limi haqidagi xabarni eshitgach, bu gap rostmi-yolg'onmi, surishtirib ham o'tirmay, o'zini haloq qiladi.

Navoiy dostonida ba'zi o'rinlarda tashqi qiyofa tasviriga ham ahamiyat beradi. Lekin anashu tashqi qiyofadagi belgilar qahramonning ma'naviy dunyosiga nisbatan betaraf emasligini nazararimizdan qochirmasligimiz lozim.

“Farhod va Shirin” Navoiyning yuksak orzular zaminida yaratgan asari bo'lgani uchun unda tasvir ham orzular darajasidagi bo'yoqlar bilan jilo topgan. Bu hol Navoiyning nihoyatda yetuk san'atkor ekanligini ko'z-ko'z qilib turuvchi diqqatga sazovor o'rinlardan biridir” [2, 34]. Doston tili bilan tanishgan o'quvchi unda obrazning tasavvur dunyosi, ularning rivojlanish jarayonida duch kelgan voqea va hodisalarning asl mohiyatini oydinlashtirishga, mazmun va shakl o'rtasidagi mutanosiblikni izchil saqlashga alohida e'tibor berilganligini ko'radi.

Navoiydek buyuk mutafakkirning g'oyalari, fikrlari, har bir so'zi salmoqli. Shu bois bugungi kun yoshlari va zamondoshlarimizga uning yetuk, qimmatli merosini o'z holicha yetkazmoq sharafli burchimiz hisoblanadi. Ushbu mas'uliyatni his etgan holda Alisher Navoiyning ijodiy merosini o'rganishga jiddiy yondashish lozimligini har birimiz unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiyning. To'la asarlar to'plami, X tomlik. 6-tom. – Toshkent: G'afurG'ulom, 2012.

2. Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: "Фан", 1992, 134-бет.

3. Қаюмов А. “Фарход ва Ширин” сирлари. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. - 167 б.

“HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...”

*Sayliyeva Zarina,
BuxDU o'qituvchisi*

Navoiy uchun kenglik **Hirotdan** boshlangan. Shoir ruhida tug'yon urgan **vatanparvarlik** tuyg'ularining sarmanzili ham beqiyos Hirotdan edi. Navoiygacha Vatanni turli shaklda ta'riflaganlar bor. Ammo Navoiy o'z asarlarida vatan va

farzandning munosabatlarini mohirona, o'zgacha tasvirlagan. Navoiy madh etgan va jonidan aziz ko'rgan yurt - Movarounnahr va Xuroson edi. Amudaryoning ikki tomonida joylashgan bu ko'hna o'lkalar, undagi Samarqand va Hirot shoir hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy Sharqning eng go'zal va maftunkor shaharlaridan sanalgan Hirot deb atalmish yurtda tug'ilib, voyaga yetadi. Xuddi mana shu diyorda vatanga bo'lgan sevgini tuyadi va umrining oxirigacha yurtining ozodligi, ravnaqi, gullab-yashnashi uchun xizmat qiladi. Ruhida tug'yon urgan vatanga bo'lgan sevgini u o'z asarlariga singdirgan.

Alisher Navoiy o'z vatani Xurosonni, tug'ilib o'sgan shahri Hirotni g'oyat samimiy muhabbat bilan sevar edi. Uning bu o'lkani madh etib yaratgan misralari nihoyatda dilbar va ohanrabodir. "Hayratul-abror"ning 19-maqoloti **Xuroson** va **Hirot** tavsifiga bag'ishlangan. "Xamsa"ning yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy"da ham 35-bob **Xuroson** va **Movaraunnahrta**'rifiga bag'ishlangan. "Hayratul-abror"da shoir dastavval falak va zamin ta'rifidan so'z ochadi. Osmonda yetti falak mavjud bo'lib, ularning har birini bir yoritgich nurafshon etib turadi. Uchtasi yuqorida, uchtasi quyida. Ularning o'rtasida esa to'rtinchisi har ikki tomonga mash'ala bo'lib nur taratadi. Xuddi shunga o'xshab jahon ham yetti iqlimga bo'linadi. 4-iqlim osmondagi 4- charxdan yaratilgan. Alisher Navoiy Xuroson o'lkasini ana shu 4-iqlimdir, deb izohlaydi. Bu o'lka ziynatda jannat bog'laridan afzal, 4-falakdan ham kengroq, 7-osmondan ham yuksakroq rutbaga egadir. Uning tog'lari osmonga mag'rur qad ko'targan. Tog'lar bag'rida esa ne-ne javohir konlari mavjud. Tuprog'i boy, sabzalariga osmon gulshani rashk qiladi. 7 falak boyligining xazinasi, 7 iqlim tan bo'lsa, Xuroson uning ko'ksidir. Shoir o'z vatanining tog'lari, dashtlari, serquyosh fasllarining oltin jilolarini otashin muhabbat bilan kuylaydi. Hirot bog'larining har biri jannat misolidir. Ularda daraxtlar yuz turfa meva bilan to'lgan:

Ziynat andoqki, badan paykari,

Vus'ati andoqki, ko'ngil kishvari.

Aytma kishvar, deki bog'i Eram,

Dema bog'i Eram, aytki Baytulharam [Навоий, 1991:307].

Shoir shaharning ma'naviy hayotini ham tasvirlaydi. Hirot xonaqolari, madrasalarini ta'rif etadi. Ularni yaratgan muhandislar va u yerda ta'lim beruvchi mudarrisarlarni ta'riflaydi. Qushlar "sabzau gul uzra xiromondir".

Sahnida yuz gul chiqorib bir yig'och,

Har gulining atri borib bir yig'och [Навоий, 1991:312].

Bu baytda juda o'rinli ishlatilgan so'z o'yini mavjud. Birinchi misradagi "yig'och" *daraxt* ma'nosida, ikkinchi misradagisi esa *masofa* ma'nosida kelgan. Demak, sahnida har bir daraxt yuz gul chiqaradi. Har gulining xushbo'y hidlari bir yig'och yerga yoyiladi, deb shoir bahor payti daraxtlar gullagan mavsumdagi

shahar husnini tasvirlaydi. Hirot shahrining geografik mavqeyi, uni o'rab turgan daryolar ham go'zal tasvirlangan. Shaharning janubida bir necha kichik anhorlar oqadi. Ular to'lqinlangandagi xuboblari osmon gumbazini eslatadi. Shimoliy tomonida esa ikkita katta daryo uni suvga serob etadi.

"Hayratul-abror"dagi Hirot madhiga doir so'zlarni o'qigan kishi o'zni husni chiroyda tengsiz, ob-havosi dilkash, bahoriy liboslar bilan bezangan, dala bog'lari qushlar xonishidan uyg'oq xayoliy bir shahar quchog'ida turganday tasavvur etishi mumkin. Bu ma'rifat maskanidan dilga go'yo nur yog'adi. Navoiy g'azallaridan birida vatanni "hayot mulki" deb ta'riflaydi.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy Hirotni jon o'rnida ko'rgan. Xuroson elining joni yanglig' uni e'zozlagan. Navoiy "Saddi Iskandariy"da yozadi:

Xuroson badandir, Hiri, jon anga,

Hiri jon, badandir Xuroson anga [Навоий, 1993: 237].

Navoiy o'zining jonajon Hiroti bilan faxrlangan. Hirot ahli ham uni e'zozlagan:

Navoiy, aysh uchun dayru riyozat chekkali Ka'ba,

Gar istarsan, bu ikki ishga yo'qtur yer Hiri yanglig'.

Jahondagi eng nomdor shaharlar qatori uning tarixi, kelajagi faxrli mavqelarda xotirlanishini istagan. Tarixchilarning guvohlik berishicha, Hirot shahri qachon va kim tomonidan bunyod etilganligi noma'lum. Ammo, uning qanday bunyod etilganligi haqida turli rivoyatlar mavjud. Shulardan biri afsonaviy Zaxxokning qiziga tegishli. Go'yo o'sha qiz Hirotni barpo ettirgan va unga o'z nomini bergan. Boshqa rivoyatlarga binoan, Hirotni Eron shohi Doro qurdirishni boshlagan, ammo jahongir Iskandar qo'shinlari tufayli bu ishni tugata olmagan. Yana bir rivoyatda: "Iskandar Hirotni qurdirgan" – deyiladi.

Albatta, bu rivoyatlardan Navoiyning xabari bo'lgan. Ammo, Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarga nisbat bergan. Iskandar Xurosonga kirib kelgach, bu o'lkaning go'zalligidan hayratda qoladi va shahar qurishni buyuradi. Bu shaharga u "**ahli donish**"- **Hirot** deb nom beradi.

Chu mazkur etib ahli donnish ham ot,

Pisand aylamay xotiri juz Hirot.

Chu bu lafzg'a iltifod aylabon,

Hamul shahar otin Hirot aylabon... [Навоий, 1993: 237].

Navoiy o'z yurtini shunchalik sevganki, hatto Vatani uchun jonidan ham kechishga tayyor bo'lgan. Vatanni sevish, uni ertangi kuni uchun qayg'urish, uning uchun jondin kechish, ravnaqi uchun kurashish vatanparvarlikdir.

Navoiyning e'tiqodicha, vatan yagona, vatan dahlsiz dunyo, uni tark etish mumkin bo'lmaganidek, yurti zolim bosqinchilar qo'lga topshirmoq ham kechirilmas qabohatdir. "Farhod va Shirin" dostonidan:

*Ayonkim vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor [Навоий, 1991:92].*

“Saddi Iskandariy” dostonida ham xuddi shu tuyg’uning o’zgacha ifodasiga duch kelamiz:

*Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g’urbat havas aylama.*

Vatan shunday ulug’ maskanki, bu go’shani hech narsa bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Vatandan tashqarida vatan yo’q. Mana shuning uchun ham inson faqat jonajon yurtida o’zini mag’rur, tinch, erkin, xotirjam his qilishi mumkin. Vatanni sevish bu e’tiqod va iymonning uyg’oqligidir. Jamiki insoniy fazilatlarining onasi – Vatan. O’z diyorida insonning qo’rqishga, bosh egib yashashga haqqi yo’q. Chunki, bu Vatanga munosib bo’lolmaslik sharmandalikdir. Vatanni sevgan insonni hech bir yovuz kuch, hech qanday jallod ham yenga olmagan. Chunki, Vatanga bo’lgan sevgini hech narsa yo’qota olmaydi. Vatanga bo’lgan sevgi insonning g’ururi timsolidir. Bunday g’ururni hech narsa mag’lub qila olmaydi. Vatanni sevish burchdir. Tarix, til, ma’naviyat, madaniyat, xalq, tabiat - bularning barchasini umumlashtirib Vatan deymiz. Agar til, tarix kamsitilsa, Vatanning kelajagi xatar sezadi. Vatan toptalsa, Vatanning bag’ri jarohatlanadi. Bunday yovuzlikka, qabohatga qarshi kurashmoq darkor. Vatanni sevmog’ insonning hayot-mamot masalasi bo’lmog’i kerak. Go’yo ota-onasi qalbida nima borligini sezganday, hatto undan ham ortiq Vatanning dilida nima borligini bilishi kerak. Insoniy kamolotning poydevori mana shundan boshlanadi. “Barkamol va sog’lom qalbdagi, – deydi V.G.Belinskiy, – Vatan taqdiri mumtoz o’rinni ishg’ol etadi, har qanday olijanob shaxs vatan bilan qon-qarindoshligini, u bilan o’zi orasidagi muqaddas bog’lanishni teran anglaydi” [Белинский, 1977:37].

Alisher Navoiy ana shunday jism-u joni bilan Vatanni seva oladigan ulkan qalb sohibi edi. Bu masalada yoshlarimiz bobokalonimiz Alisher Navoiydan o’rnak olsalar arziydi.

ADABIYOTLAR

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
2. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. –Тошкент: Фан, 1991.
3. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. Фарҳод ва Ширин. –Тошкент: Фан, 1991.
4. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 11-том. Садди Искандарий. –Тошкент: Фан, 1993.

<i>Murodova Gulchehra</i> “HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDAGI SO‘Z TA‘RIFI BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI....	68
<i>Шоҳиста Низомова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ..	71
<i>G. S.Omarova, M. R. Bozorbayeva</i> “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF DADIY NIYATINING IFODALANISHI.....	76
<i>Ражабова Маърифат</i> САМАНДАР – АБАДИЙ ҲАЁТ ТИМСОЛИ.....	80
<i>Зулайҳо Раҳмонова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЁТИДА ТАВБА ТАЛҚИНЛАРИ... ..	84
<i>Sadullayeva Shahlo, Shamsiddinova Sitora</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAYRAT VA FAQR-U FANO VODIYLARINI TASVIRLASHDA TAMSILIIY NIHOYATNING AHAMIYATI.	89
<i>Safarova Shahlola</i> “SABB‘AI SAYYOR” DOSTONI HAMD BOBINING G‘OYAVIY –BADIY TAHLILI....	94
<i>Hilola Safarova, Mohigul Ismatova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI.....	98
<i>Sayliyeva Zarina</i> “HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...”.....	100
<i>G. Sayidova</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING TASNIFI... ..	104
<i>H. H. Teshayev</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ.	107
<i>Xudoyorova Nigora</i> NAVOIY NAZMINING JILOLARI.....	111
<i>Д.К.Эргашева</i> ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....	113
<i>Ergasheva Naima</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA TANOSUB SAN‘ATI.....	118
<i>Хусниддин Эшонқулов</i> МАЪШУҚА ВА ОШИҚ ҲОЛИГА ХОС ИСТИОРАЛАШГАН ЭПИТЕТЛАРИНИНГ ҚОФИЯЛАНИШИ.....	120
<i>G. Sh.Qobilova</i> “SAB‘AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIY-TANQIDIY MATNINI YARATISHDA ASOS BO‘LGAN MANBALAR.....	124
<i>Дилрабо Қувватова, Зарнигор Соҳибова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ОҒАҲИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАҲОР ТАСВИРИНИНГ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАРИ... ..	126
<i>Halimova Shahlo</i> ALISHER NAVOIY TARJE‘BANDLARINING TASVIR MOHIYATI... ..	130
<i>Ноҷиёва Нигина</i> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ..	133
<i>Azimjon Hamidov</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR.....	137
<i>Vaxobova Shoxida</i> “MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI.....	140